



## JAHON KONSTITUTSIYAVIY TAJRIBASI VA O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA INSON HUQUQLARI BO`YICHA XALQARO ANDOZALARNING AKS ETISHI

Ro`zmetova Laylo Xudoyorovna

Xorazm viloyati Urganch tumani 16-sonli maktab Boshlang'ich sinf o'qituvchisi "Xalq ta'limi a'lochisi", maktab kasaba uyushmasi raisi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7379794>

### ARTICLE INFO

Received: 20<sup>th</sup> November 2022

Accepted: 25<sup>th</sup> November 2022

Online: 30<sup>th</sup> November 2022

### KEY WORDS

*jahon konstitutsiyaviy andozasi, demokratik namiyat, huquqiy an'analar, «Temur tuzuklari», "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi".*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada jahon konstitutsiyaviy tajribasi, inson huquqlariga oid zamonaviy xalqaro andozalar hamda bosh qomusimizning inson hayotida tutgan o'ri haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Har bir davlatning davlat sifatida qaytarilmas va o`ziga xos xususiyatlarini ko`rsatuvchi asosiy hujjat uning Konstitutsiyasidir. Jamiyatni umumbashariy huquqiy qadriyatlar asosida tashkil etishda Konstitutsiyaning ahamiyati beqiyosdir. Asosiy Qonun o`z mohiyati e`tibori bilan har qanday demokratik jamiyatning bosh belgilaridan biri bo`lib, unda inson, shaxs va jamiyatning huquqiy jihatlari, davlat hokimiyatining tuzilishi va uning idoralari faoliyatini tashkil etishning mezoniy qoidalari ifoda etiladi. Bir so`z bilan aytganda, Konstitutsiya davlatning o`ziga xos tanishtiruv hujjati, "pasporti" desak mubolag`a bo`lmaydi. Mustaqil O`zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi jahon konstitutsiyaviy fondining tarkibiy qismidir. Nima uchun? O`zbekiston Konstitutsiyasi: ° tarixiy va hozirgi zamon ilg`or jahon konstitutsiyaviy tajribasini o`zida mujassamlashtirgan;

° milliy, tarixiy, axloqiy, diniy, huquqiy an'analarimizni jahon konstitutsiyaviy amaliyoti bilan uzviy ravishda bog`langan; ° totalitar tuzumdan huquqiy davlat va demokratik fuqarolik jamiyatiga o`tayotgan yosh mustaqil davlatning Konstitutsiyasi qanday bo`lishi kerak degan savolga javob beradi. Shuning uchun ham O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – bu umumbashariy va milliy huquqiy qadriyatlarni o`zida uyg`unlashtirgan qoidalar va normalar majmuidir. Jahon konstitutsiyaviy tajribasi o`zaro bir-biri bilan uzviy bog`liq uch tarkibiy qismdan iborat. Birinchidan, Konstitutsiya to`g`risidagi g`oyalar, qarashlar, ta`limotlardir. Bular o`zining tarixiy kelib chiqishiga ko`ra juda qadimiydir. "Konstitutsiya" iborasi qadimgi Rim respublikasida paydo bo`lgan. O`rta asrlarda esa u yoki bu davlatning konstitutsiyaviy xarakterdagi asosiy qonunlari asosan "xartiya" deb yuritilgan. Konstitutsiyaviy xarakterdagi qonunlar jumlasiga "Temur tuzuklari" ham kiradi.

Ikkinchidan, tarixiy va hozirgi kunda amal qilayotgan Konstitutsiyalar. Konstitutsiya

yagona huquqiy hujjat sifatida 1787- yilda AQSH da paydo bo'lgan, ya'ni XVIII asr mahsulidir. taxminan hisoblarga qaraganda, shu kungacha jahonda 800 ga yaqin Konstitutsiya qabul qilingan.

Uchinchidan, konstitutsiyaviy amaliyot, ya'ni Konstitutsiyaning amaliy harakati, qo'llanilishi. Konstitutsiya har bir jamiyat va davlat taraqqiyotining huquqiy asoslarini yaratadi. Konstitutsiya-iqtisodiy, siyosiy, huquqiy islohotlar, tinchlik, totuvlik, barqarorlik kafolatidir.

O'zbekiston jahon konstitutsiyaviy tajribasiga quyidagi yo'nalishlarda amaliy hissa qo'shgan. Birinchidan, jahon konstitutsiyaviy ta'limotiga va nazariyasiga. Bu hissa avvalambor, Movarounnahr fiqh ta'limoti namoyondalarining asarlarida yaratilgan musulmon huquqi qadriyatlarini haqidagi qarashlarda namoyon bo'ldi. Misol uchun, Burhoniddin Marg'inoniyning to'rt jildli fundamental "Hidoya" asarini ko'rsatish mumkin. Ikkinchidan, O'zbekiston xududida turli tarixiy davrlarda qabul qilingan Konstitutsiyalar. Bular jumlasiga "Temur tuzuklari" dan tortib sovet davridagi o'ndan ortiq Konstitutsiya kiradi. O'z xarakteriga ko'ra, bu Konstitutsiyalar mustamlaka, protektorat davlat Asosiy Qonunlari edi. Bunday Konstitutsiyalar XX asrning birinchi yarmida Suriya, Livan, Misrda ham bo'lgan. Uchinchidan, istiqlol yillaridagi konstitutsiyaviy amaliyotimiz bir qator chet el davlatlari uchun tajriba o'rganish obyektiga aylanmoqda.

Inson huquqlarini tartibga soluvchi hozirgi xalqaro huquqiy hujjatlar tizimida 1948- yilda qabul qilingan BMTning "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi" muhim o'rin egallaydi. "Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi" xalqaro miqiyosda inson huquqlari sohasidagi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqishga qaratilgan hatti-harakatlar uchun asos bo'lib qoldi. Hozirgi paytda BMTning inson huquqlari borasida 80 dan ortiq xalqaro shartnoma va konvensiyalari mavjud. Inson huquqlari bo'yicha shartnomalardagi Umumjahon deklaratsiyasidan farqli yangilik shundan iboratki, bu hujjatlarda inson huquqlari batafsil talqin qilinadi, ularni ro'yobga chiqarishning davlat tomonidan kafolatlanishi mustahkamlab qo'yiladi, har qanday holatlarda ham fundamental inson huquqlarining davlat tomonidan cheklanishi mumkin bo'lmagan alohida turkumlari (yashash huquqi, qiynoqlarga yo'l qo'yilmasligi, fikr va e'tiqod erkinligi, sudlov himoyasiga bo'lgan huquq) ajratib ko'rsatiladi. Xulosa qilib aytganda, mustaqil O'zbekistonning birinchi Konstitutsiyasi barcha demokratik qoidalar, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga asoslanib, Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo bo'lgan barcha davlatlar tomonidan tasdiqlangan Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasining barcha qadriyatlarini o'zida aks ettirgan milliy-tarixiy hujjatdir.

Konstitutsiya o'zbek xalqiga milliy, demokratik huquqiy davlat soyasida yashash uchun huquqiy sharoit yaratib berib, ularni bozor iqtisodiyotiga va bu yo'ldan yangi hayot ufqlari tomon yo'llab boradi hamda O'zbekiston Respublikasiga jahon miqiyosida buyuk demokratik davlatlar qatorida yuksak va e'tiborli o'rin tutish uchun yordam beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Inson huquqlari: savol va javoblar. T.,1997-y.
2. Saidov A.X. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquq. - T.: 2006-y.
3. Yuldasheva G., Maxamatov M. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekiston Respublikasida inson huquqlarini himoya qilishning milliy tizimi.

4. Yuldasheva G. Международный пакт об экономических, социальных и культурных правах и его реализация в Узбекистане. Broshyura. -Т.: NSPCH, TGYUI, 2008 g.
5. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish milliy tizimi/Mas'ul muharrir A.X.Saidov. – Т.: O'zbekiston. 2010-y.